



**DIPLOMATIK VA KONSULLIK VAKILLARI IMMUNITETLARINING
AMAL QILISH CHEGARALARI: XALQARO HUQUQ VA MILLIY
AMALIYOTNING O‘ZARO NISBATI**

**Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Xalqaro huquq yo‘nalishi 1-
bosqich magistranti**

Razzoqov Elbek Alisher o‘g‘li

elbekrazzoqov2002@gmail.com

**Razzokov Elbek Alisher o‘g‘li, 1st year master’s student in International Law at
the University of World Economy and Diplomacy**

elbekrazzoqov2002@gmail.com

**LIMITS OF APPLICATION OF DIPLOMATIC AND CONSULAR
IMMUNITIES: THE RELATIONSHIP BETWEEN INTERNATIONAL
LAW AND NATIONAL PRACTICE**

Annotatsiya. Ushbu maqolada diplomatik va konsullik vakillari immunitetlarining huquqiy tabiati, funksional maqsadi hamda ularning amal qilish chegaralari xalqaro huquq manbalari va milliy amaliyot misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi diplomatik immunitet bilan konsullik immuniteti o‘rtasidagi farqlarni, ayniqsa ularning yurisdiksiya, daxlsizlik, javobgarlikdan ozod etish va bekor bo‘lish mexanizmlari nuqtai nazaridan aniqlashdan iborat. Maqolada 1961-yildagi Diplomatik aloqalar to‘g‘risidagi Vena konvensiyasi va 1963-yildagi Konsullik munosabatlari to‘g‘risidagi Vena konvensiyasi markaziy manba sifatida olingan, shuningdek Buyuk Britaniya, AQSh va O‘zbekiston normativ-amaliy tajribasi bilan qiyosiy yondashuv qo‘llangan. Tadqiqot natijasida diplomatik immunitet asosan shaxsiy va kengroq xarakterga ega ekani, konsullik immuniteti esa funksional va tor doirada amal qilishi asoslab beriladi. Shuningdek, immunitetlar mutlaq jazosizlik emasligi, chunki ularga voz kechish, persona non grata, rezidual immunitetning tor doirasi, qabul qiluvchi davlat qonunlariga hurmat majburiyati va yuboruvchi davlat yurisdiksiyasi kabi cheklovchi mexanizmlar tatbiq etilishi ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: diplomatik immunitet, konsullik immuniteti, Vena konvensiyalari, yurisdiksiya, daxlsizlik, voz kechish, persona non grata, rezidual immunitet, milliy amaliyot, xalqaro huquq.

Аннотация. В данной статье исследуются правовая природа, функциональное назначение и пределы действия иммунитетов дипломатических и консульских представителей на основе международно-



правовых источников и национальной практики. Основная цель исследования состоит в выявлении различий между дипломатическим и консульским иммунитетом, прежде всего с точки зрения юрисдикции, личной неприкосновенности, освобождения от ответственности и механизмов прекращения иммунитета. Центральное место в анализе занимают Венская конвенция о дипломатических сношениях 1961 года и Венская конвенция о консульских сношениях 1963 года; дополнительно используется сравнительный подход с привлечением нормативной и судебной практики Великобритании, США и Узбекистана. В результате исследования обосновывается, что дипломатический иммунитет носит преимущественно личный и более широкий характер, тогда как консульский иммунитет является функциональным и действует в более узких пределах. Также показывается, что иммунитеты не означают абсолютной безнаказанности, поскольку ограничиваются такими механизмами, как отказ от иммунитета, объявление *persona non grata*, узкие рамки остаточного иммунитета, обязанность уважать законы государства пребывания и сохранение юрисдикции государства аккредитации.

Ключевые слова: дипломатический иммунитет, консульский иммунитет, Венские конвенции, юрисдикция, неприкосновенность, отказ от иммунитета, *persona non grata*, остаточный иммунитет, национальная практика, международное право.

Abstract. This article examines the legal nature, functional purpose, and limits of diplomatic and consular immunities through the lens of international law and domestic practice. The main objective is to identify the differences between diplomatic and consular immunity, especially with regard to jurisdiction, inviolability, exemption from legal process, and mechanisms for the termination of immunity. The 1961 Vienna Convention on Diplomatic Relations and the 1963 Vienna Convention on Consular Relations constitute the core normative framework, while the domestic legal practice of the United Kingdom, the United States, and Uzbekistan is used comparatively. The study demonstrates that diplomatic immunity is predominantly personal and broader in scope, whereas consular immunity is functional and significantly narrower. It further argues that immunity does not amount to absolute impunity, because it is constrained by waiver, *persona non grata*, the limited scope of residual immunity, the duty to respect the laws of the receiving State, and the continuing jurisdiction of the sending State.

Keywords: diplomatic immunity, consular immunity, Vienna Conventions, jurisdiction, inviolability, waiver, *persona non grata*, residual immunity, domestic



practice, international law.

Kirish.

Diplomatik va konsullik vakillari immunitetlari zamonaviy xalqaro huquqning eng nozik institutlaridan biridir. Bu institutning dolzarbligi shundaki, u bir tomondan davlatlararo munosabatlarning uzluksizligini, vakolatxonalarining erkin faoliyat yuritishini va qabul qiluvchi davlat hududida xorijiy davlat vakillarining mustaqilligini ta'minlaydi, ikkinchi tomondan esa jabrlanuvchilarning odil sudlovga erishish huquqi, davlat suvereniteti va hududiy yurisdiksiya prinsipi bilan to'qnash keladi. Vena konvensiyalarining preambularida immunitetlarning maqsadi alohida shaxslarga naf keltirish emas, balki vakolatxona va konsullik postlarining funksiyalarini samarali bajarishini ta'minlash ekani bevosita qayd etilgan. Shu sababli immunitetlar o'z mohiyatiga ko'ra "imtiyoz" emas, balki "funktional huquqiy kafolat" sifatida talqin qilinishi kerak¹. Muammoning ilmiy-amaliy jihati aynan "amal qilish chegaralari" masalasida yaqqol namoyon bo'ladi. Diplomatik agent qabul qiluvchi davlatning jinoiy yurisdiksiyasidan to'liq, fuqarolik va ma'muriy yurisdiksiyasidan esa cheklangan istisnolar bilan ozod etiladi; konsullik mansabdor shaxsi esa, aksincha, faqat konsullik funksiyalarini bajarish bilan bog'liq xatti-harakatlari doirasida immunitetga ega bo'ladi. Demak, xalqaro huquqning o'zi diplomat va konsulni bir xil huquqiy maqomga qo'ymaydi. Aynan shu farq milliy qonunchilik va sud amaliyotida qanchalik to'g'ri aks etgani masalasi ushbu tadqiqotning markaziy savolidir.

Maqolaning maqsadi diplomatik va konsullik immunitetlarining amal qilish doirasini xalqaro shartnomalar, sud amaliyoti va ayrim davlatlar milliy huquqiy amaliyoti asosida tahlil qilish hamda ularning o'zaro nisbatini aniqlashdan iborat. Tadqiqotning vazifalari: birinchidan, diplomatik va konsullik immunitetlarining funksional-huquqiy mohiyatini ochish; ikkinchidan, ularning tugashi, cheklanishi va istisnolarini aniqlash; uchinchidan, Buyuk Britaniya, AQSh va O'zbekiston misolida milliy amaliyotning xalqaro standartlarga moslik darajasini ko'rsatish; to'rtinchidan, milliy huquqni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish. Bu yondashuv mavzuni nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham foydali qiladi. **Materiallar va metodlar.** Tadqiqotda formal-yuridik, qiyosiy-huquqiy, tizimli-tahliliy va case-study metodlaridan foydalanildi. Asosiy manbalar sifatida 1961-yildagi Diplomatik aloqalar to'g'risidagi Vena konvensiyasi, 1963-yildagi Konsullik munosabatlari to'g'risidagi Vena konvensiyasi, Buyuk Britaniyaning Diplomatic Privileges Act 1964 va Consular Relations Act 1968 hujjatlari, AQShning 22 U.S.C. § 254d

¹ <https://treaties.un.org/doc/publication/unts/volume%20500/volume-500-i-7310-english.pdf>



qoidasi, O‘zbekiston Respublikasining xorijiy diplomatik vakolatxonalar va konsullik muassasalari faoliyati to‘g‘risidagi 2001-yilgi nizomi hamda 2019-yilgi Konsullik ustavi, shuningdek Reyes v Al-Malki ishi materiallari olindi. Tanlangan metodologiya xalqaro normalarning matni bilan milliy darajadagi qo‘llash amaliyotini bir-biriga bog‘lab tahlil qilish imkonini beradi². Formal-yuridik metod immunitetning normativ tarkibini aniqlashga, qiyosiy metod esa diplomat va konsul maqomining umumiy va farqli jihatlarini ajratishga xizmat qildi. Case-study metodi yordamida Reyes v Al-Malki ishidagi rezidual immunitet talqini, xususan lavozim tugaganidan keyin faqat rasmiy funksiyalar bilan bog‘liq harakatlarga himoyalanihi haqidagi yondashuv o‘rganildi. Milliy amaliyot tahlilida esa xalqaro normalarning ichki huquqqa “to‘g‘ridan-to‘g‘ri inkorporatsiya” yo‘li bilan kirib kelishi va amaliyotda protsessual filtrlar orqali ishlashi masalasi markaziy mezon sifatida olindi³.

Natijalar. Tadqiqotning birinchi natijasi shundan iboratki, diplomatik va konsullik immunitetlari yagona institut emas, balki ikki turdagi himoya rejimidir. Diplomantik immunitet 1961-yilgi Vena konvensiyasiga ko‘ra ko‘proq shaxsiy va statusga bog‘liq xarakterga ega: diplomatik agentning shaxsi daxlsiz, u hibsga olinmaydi va jinoiy yurisdiksiyadan to‘liq ozod bo‘ladi. Fuqarolik hamda ma‘muriy yurisdiksiyadan ham u keng miqyosda ozod etiladi, biroq xususiy ko‘chmas mulk, merosga oid da‘volar va rasmiy funksiyalardan tashqaridagi professional yoki tijorat faoliyatiga oid da‘volar bundan mustasno. Bundan tashqari, diplomat yuboruvchi davlat yurisdiksiyasidan ozod qilinmaydi, ya‘ni jazosizlik mutlaq emas. Ikkinchi natija shuki, konsullik immuniteti tabiatiga ko‘ra funksionaldir. 1963-yilgi Vena konvensiyasining 43-moddasi bo‘yicha konsullik mansabdor shaxslari va xodimlari qabul qiluvchi davlatning sud yoki ma‘muriy organlari yurisdiksiyasidan faqat “konsullik funksiyalarini bajarish chog‘ida” sodir etilgan xatti-harakatlar yuzasidan ozod etiladi. Shu moddaning ikkinchi qismi esa ikki muhim istisnoni belgilaydi: yuboruvchi davlat nomidan tuzilmagan xususi shartnomalar hamda transport vositasi, kema yoki havo kemasi bilan bog‘liq zarar uchun uchinchi shaxs da‘volari. Bu, konsullik immuniteti diplomatnikiga qaraganda ancha tor va vazifa bilan kuchli bog‘langanini ko‘rsatadi⁴.

Uchinchi natija shundan iboratki, ikkala konvensiya ham immunitet bilan birga cheklovchi majburiyatlarni ham belgilaydi. 1961-yilgi Vena konvensiyasining 41-moddasi va 1963-yilgi Vena

² <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/1964/81>

³ https://supremecourt.uk/uploads/uksc_2016_0023_judgment_2c0c2b6cc0.pdf

⁴ https://legal.un.org/ilc/texts/instruments/english/conventions/9_2_1963.pdf



konvensiyasining 55-moddasi immunitetga ega shaxslar qabul qiluvchi davlat qonunlari va qoidalarini hurmat qilishi, uning ichki ishlariga aralashmasligi kerakligini belgilaydi. Diplomatik vakolatxona binolaridan missiya funksiyalariga zid tarzda foydalanish mumkin emas; xuddi shunday, konsullik binolari ham konsullik funksiyalariga nomuvofiq maqsadlarda ishlatilmasligi shart. Demak, immunitet xalqaro huquqda “huquqiy muhofaza” bo‘lishi bilan birga “huquqiy intizom”ni ham nazarda tutadi. To‘rtinchi natija diplomat va konsulning shaxsiy daxlsizlik darajasidagi farqqa taalluqlidir. Diplomatik agent 1961-yilgi Vena konvensiyasining 29-moddasiga muvofiq hibsga olinishi yoki ushlab turilishi mumkin emas. Konsullik mansabdor shaxsi esa 1963-yilgi Vena konvensiyasining 41-moddasiga ko‘ra og‘ir jinoyat sodir etgan hollarda va vakolatli sud organi qarori bilan hibsga olinishi mumkin. Shunday qilib, xalqaro huquq konsulga nisbatan qabul qiluvchi davlatning repressiv vakolatlarini to‘liq istisno qilmaydi; bu esa konsullik immunitetining tabiatini yana bir bor funksional institut sifatida tasdiqlaydi.

Beshinchi natija immunitetning vaqt jihatidan ham cheksiz emasligini ko‘rsatadi. 1961-yilgi Vena konvensiyasining 39-moddasi diplomatik immunitetning asosan lavozim davri bilan bog‘liqligini, lavozim tugagach esa faqat missiya a‘zosi sifatida bajarilgan rasmiy harakatlar bo‘yicha rezidual immunitet saqlanib qolishini belgilaydi. Xuddi shunday, 1963-yilgi Vena konvensiyasining 53-moddasi ham konsullik vakolatlari tugagach umumiy immunitetlar odatda tugashi, biroq rasmiy funksiyalar doirasidagi harakatlar bo‘yicha immunitet saqlanishini nazarda tutadi. Bu qoidalar statusga asoslangan immunitet ham oxir-oqibat funksional mezonga qaytishini ko‘rsatadi.

Oltinchi natija shuki, milliy amaliyot ko‘pincha xalqaro konvensiyalarni ichki huquqqa to‘g‘ridan-to‘g‘ri kiritadi va shu yo‘l bilan immunitetning amaliy doirasini belgilaydi. Buyuk Britaniyada Diplomatic Privileges Act 1964 1961-yilgi Vena konvensiyasiga, Consular Relations Act 1968 esa 1963-yilgi Vena konvensiyasiga “ta’sir berish” uchun qabul qilingan. AQShda esa 22 U.S.C. § 254d immunitetga ega shaxsga qarshi qo‘zg‘atilgan har qanday ish yoki protsess uning immuniteti aniqlangach rad etilishini belgilaydi⁵. O‘zbekistonda 2001-yilgi Nizomda diplomatik va konsullik xodimlariga beriladigan imtiyoz va daxlsizliklar Vena konvensiyalari, xalqaro urf-odatlar va milliy qonunchilikka muvofiq belgilanadi, shu bilan birga ular O‘zbekiston qonunlari va qoidalarini hurmat qilishi lozimligi alohida qayd etiladi.

Yettinchi natija O‘zbekiston konsullik

⁵ <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/1964/81>



amaliyotining ham funksional yondashuvga asoslanishini ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasining Konsullik ustavida konsullik faoliyati Konstitutsiya, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va normalari, xalqaro shartnomalar hamda joylashgan davlat qonunchiligi hisobga olingan holda amalga oshirilishi belgilangan. Konsullik mansabdor shaxsi xalqaro shartnomalar va qabul qiluvchi davlat roziligi doirasida qo'shimcha funksiyalarni ham bajarishi mumkin. Bu esa milliy amaliyotda ham "funksiya - maqomdan ustun mezon" bo'lib qolayotganini ko'rsatadi⁶.

Muhokama. Natijalar shuni ko'rsatadiki, xalqaro huquqda immunitetning haqiqiy markazi "shaxsni himoya qilish" emas, balki "davlat funksiyasini himoya qilish"dir. Ammo amaliyotda aynan shu mezon eng bahsli masalaga aylanadi: qaysi harakat "rasmiy funksiya" hisoblanadi va qaysi harakat xususiy xatti-harakat sifatida ko'riladi? Bu savol, ayniqsa, maishiy xizmatchilar bilan mehnat munosabatlari, xususiy shartnomalar, yo'l-transport hodisalari, xususiy biznes va moliyaviy ekspluatatsiya bilan bog'liq nizolarda keskinlashadi. Demak, immunitetlar masalasi bugungi kunda faqat protokol yoki diplomatik etiket masalasi emas, balki inson huquqlari va odil sudlov bilan uzviy bog'liq huquqiy kolliziya maydonidir.

Reyes v Al-Malki ishi aynan shu kolliziyani yorqin namoyon etadi. Buyuk Britaniya Oliy sudi ushbu ishda diplomatning lavozimi tugab, u mamlakatni tark etgach, unga faqat 1961-yilgi Vena konvensiyasining 39-moddasi bo'yicha rezidual immunitet qolishini, bunday immunitet esa faqat missiya a'zosi sifatida bajarilgan rasmiy harakatlarni qamrab olishini ta'kidladi. Sud uy xizmatchisini yollash va unga nisbatan muomala qilish diplomatning rasmiy funksiyasi emasligini ko'rsatdi. Shu bilan birga sud xususiy uy xo'jaligida xizmatlardan foydalanishning o'zi 31(1)(c)-moddadagi "professional yoki tijorat faoliyati" istisnosiga avtomatik ravishda kirmasligini ham qayd etdi. Bu yondashuv xalqaro huquq va milliy sud amaliyoti o'rtasidagi murakkab uyg'unlikni ko'rsatadi: sud konvensiyani buzmaydi, lekin uning ichidagi tor chegaralarni amaliy mazmun bilan to'ldiradi⁷. Shuningdek, diplomat va konsul o'rtasidagi farqni milliy amaliyot to'g'ri aks ettirishi juda muhim. AQSh amaliyotida immunitetli shaxsga qarshi ishni rad etish to'g'risidagi norma protsessual darajada kuchli himoya yaratadi, lekin rasmiy manbalarda konsullik xodimlari odatda faqat rasmiy harakatlar doirasida immunitetga ega ekani ham alohida ko'rsatiladi. Buyuk Britaniya aklari esa Vena konvensiyalariga

⁶ <https://lex.uz/docs/-4167683>

⁷ https://supremecourt.uk/uploads/uksc_2016_0023_judgment_2c0c2b6cc0.pdf



to‘g‘ridan-to‘g‘ri huquqiy ta‘sir beradi. O‘zbekistonda esa milliy nizomlar Vena konvensiyalarini asosiy mezon sifatida tan olib, shu bilan birga qabul qiluvchi davlat qonunlariga hurmat majburiyatini mustahkamlaydi. Demak, milliy amaliyotning umumiy tendensiyasi xalqaro standartlarni inkor etish emas, balki ularni protsessual va institutsional shaklda ichki huquqqa moslashtirishdan iborat⁸.

Muhokama doirasida yana bir muhim jihat – immunitetni bekor qilish va yumshatish mexanizmlaridir. 1961-yilgi Vena konvensiyasi 32-moddasi ham, 1963-yilgi Vena konvensiyasi 45-moddasi ham yuboruvchi davlat immunitetdan voz kechishi mumkinligini belgilaydi; 1961-yilgi Vena konferensiyasining yakuniy hujjatlarida esa yuboruvchi davlatlardan fuqarolik da‘volari bo‘yicha, missiya faoliyatiga xalal bermaydigan hollarda, immunitetdan voz kechish va adolatli kelishuvga erishish tavsiya etilgan. Bundan tashqari, qabul qiluvchi davlat istalmagan diplomatni persona non grata deb e‘lon qilishi mumkin. Bu vositalar shuni ko‘rsatadiki, xalqaro huquq immunitetni jazosizlikka aylantirmaslik uchun ichki “tormoz mexanizmlari”ni ham yaratgan.

Nihoyat, nazariy jihatdan eng to‘g‘ri yondashuv immunitetni “funksiya bilan asoslangan differensial himoya rejimi” sifatida tushunishdir. Diplomatga berilgan kengroq himoya davlatlararo aloqalar uzluksizligini ta‘minlash ehtiyojidan kelib chiqadi; konsulga berilgan torroq himoya esa uning ko‘proq ma‘muriy, notarial, yordamchi va fuqarolar bilan ishlashga oid funksiyalari bilan izohlanadi. 1963-yilgi Vena konvensiyasining 5-moddasi konsullik funksiyalarini ancha batafsil sanab o‘tadi va shu sababli konsullik immunitetining chegarasini amaliyotda aniqlash nisbatan osonroq hisoblanadi. Ammo aynan shu “rasmiy funksiya” mezonini milliy sudlar bir xil talqin qilmasa, huquqni qo‘llash notekis bo‘lib qoladi. Shu bois xalqaro huquqdagi asosiy vazifa bugun konvensiyalarning matnini takrorlash emas, balki ularni yagona talqin standartlari bilan to‘ldirishdan iborat.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi

tahlil shuni ko‘rsatadiki, diplomatik va konsullik immunitetlari bir xil tabiatga ega emas. Diplomatik immunitet – kengroq, shaxsiyroq va lavozim davrida kuchliroq; konsullik immuniteti esa torroq, funksional va istisnolari ko‘proq bo‘lgan institutdir. Shu bilan birga, har ikkala institutda ham umumiy konseptual asos bitta: immunitet shaxs manfaatini emas, davlatning tashqi vakillik funksiyasini himoya qiladi. Shuning uchun xalqaro huquqda immunitetni suiiste‘mol qilishga qarshi javob sifatida qabul qiluvchi davlat qonunlarini hurmat qilish majburiyati, voz kechish,

⁸ <https://www.law.cornell.edu/uscode/text/22/254d>



persona non grata, rezidual immunitetning torligi va yuboruvchi davlat yurisdiksiyasining saqlanishi kabi mexanizmlar ishlab chiqilgan.

Birinchi taklif shundan iboratki, milliy qonunchilik va amaliy yo‘riqnomalarda “rasmiy funktsiya” tushunchasini yanada aniqroq mezonlar bilan belgilash zarur. Ayniqsa mehnat ekspluatatsiyasi, xususiy uy xizmatchilari, tijoriy bitimlar, xususiy transport vositalari bilan bog‘liq zarar va shaxsiy daromadga qaratilgan faoliyatlar diplomatik yoki konsullik immuniteti bilan qoplanmaydigan holatlar sifatida batafsil tushuntirilishi kerak. Reyes v Al-Malki ishi bu borada foydali namunaviy standart bera oladi.

Ikkinchi taklif – sudlar, prokuratura, ichki ishlar organlari va tashqi ishlar organlari uchun yagona protsessual algoritmi ishlab chiqish kerak. Unda shaxsning maqomini tekshirish, uning diplomatik yoki konsullik toifasini aniqlash, harakatning rasmiy yoki xususiy tabiatini baholash, yuboruvchi davlatdan voz kechish so‘rash tartibi va persona non grata choralarini ko‘rish ketma-ketligi aniq belgilanishi lozim. Bu nafaqat qabul qiluvchi davlat suverenitetini, balki xalqaro majburiyatlarga sodiqlikni ham ta‘minlaydi⁹.

Uchinchi taklif - O‘zbekiston amaliyotida ham Vena konvensiyalariga tayanadigan mavjud normativ bazani amaliy sharhlar bilan boyitish lozim. Xususan, 2001-yilgi Nizom va Konsullik ustavi asosida izohli amaliy qo‘llanmalar ishlab chiqilib, unda diplomat, konsul, faxriy konsul, konsullik bo‘limida ishlovchi diplomat va mahalliy xodim maqomlari o‘rtasidagi farqlar sud-huquq amaliyoti uchun sodda va aniq ko‘rinishda bayon etilishi zarur. Ana shundagina xalqaro huquq va milliy amaliyot o‘rtasidagi nisbat formal moslikdan real huquqiy samaradorlik bosqichiga o‘tadi.

Foydalanilgan manbalar ro‘yxati:

1. *Vienna Convention on Diplomatic Relations*. (1961, April 18). Preambula; 9-modda; 22-modda; 29-modda; 31-modda; 32-modda; 38-modda; 39-modda; 41-modda; 42-modda.

<https://treaties.un.org/doc/publication/unts/volume%20500/volume-500-i-7310-english.pdf>

2. *Vienna Convention on Consular Relations*. (1963, April 24). Preambula; 5-modda; 41-modda; 43-modda; 45-modda; 53-modda; 55-modda; 57-modda; 70-modda; 71-modda.

https://legal.un.org/ilc/texts/instruments/english/conventions/9_2_1963.pdf 3.

⁹ <https://www.law.cornell.edu/uscode/text/22/254d>



Reyes v Al-Malki and another [2017] UKSC 61. (2017, October 18). United Kingdom Supreme Court. 4-band; 18-band; 48-51-bandlar; 55-57-bandlar. https://supremecourt.uk/uploads/uksc_2016_0023_judgment_2c0c2b6cc0.pdf

4. *Diplomatic Privileges Act 1964*. (1964). United Kingdom legislation. <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/1964/81>

5. *Consular Relations Act 1968*. (1968). United Kingdom legislation. <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/1968/18>

6. 22 U.S.C. § 254d – *Dismissal on motion of action against individual entitled to immunity*. (1978). U.S. Code. <https://www.law.cornell.edu/uscode/text/22/254d>

7. 2 FAM 230 – *Immunities of Foreign Representatives and Officials*. U.S. Department of State. (U.S. Department of State, 2 FAM 230). <https://fam.state.gov/fam/02fam/02fam0230.html>

8. *Xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalari, konsullik muassasalari, xalqaro tashkilotlar vakolatxonalarining hamda ular xodimlarining O‘zbekiston Respublikasidagi faoliyati to‘g‘risida Nizom*. (2001-yil 8-may). O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori, 207-son. <https://lex.uz/docs/-338699>

9. *O‘zbekiston Respublikasining Konsullik ustavini tasdiqlash to‘g‘risida*. (2019-yil 17-yanvar). O‘RQ-517-son. <https://lex.uz/docs/-4167683>